

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNING AHAMIYATI

Dilnoza Sherzodovna Bozorboyeva

Urganch davlat pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish usullari hamda bu usullarning o'quvchilar ta'lim olish jarayonidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shunga ko'ra ushbu maqola pedagog olimlar, o'qituvchilar, dastur va darslik mualliflari uchun dasturulamali bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: sinfdan tashqari ishlar, uzviylik, matematika to'garagi, matematika ertaligi, matematikadan fakultativ mashg'ulotlar, matematik matbuot, matematik viktorina, olimpiadalar.

ЗНАЧЕНИЕ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются методы организации внеурочной деятельности на уроках математики учащихся начальных классов общеобразовательных школ и значение этих методов в образовательном процессе учащихся. Соответственно, данная статья служит программой для ученых-педагогов, преподавателей, авторов программ и учебников.

Ключевые слова: внеклассная работа, интеграция, математический кружок, ранняя математика, факультативные занятия по математике, математическая пресса, математическая викторина, олимпиады.

THE IMPORTANCE OF OUTSIDE THE CLASSROOM WORK IN MATHEMATICS IN PRIMARY GRADES

ABSTRACT

The article discusses the methods of organizing extracurricular activities in mathematics classes of elementary school students of general secondary schools, as well as the importance of these methods in the educational process of students.

Accordingly, this article serves as a program for pedagogic scientists, teachers, authors of programs and textbooks.

Key words: extracurricular activities, integration, math club, early math, optional math classes, math press, math quiz, Olympiads.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, xususan, milliy istiqlol g'oyalarining hayotimizga tobora chuqur ildiz otib borishi ta'lim tizimidagi islohotlarning ham mazmunini boyitmoqda. Ta'lim jarayonida o'qitishning tajribada sinovlardan o'tgan shakl va usullari boyitilib, zarurat bo'lganda, yangilanib amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu boradagi davlat siyosati ham uzluksiz ta'lim vositasida ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalangan har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Uning nechog'li to'g'ri amalga oshirilishi ko'p jihatdan boshlang'ich ta'lim tizimining samaradorligiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning eng muhim bo'g'inidir. "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomda ta'kidlanganidek: "Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini-o'zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta'minlashga da'vat etilgan.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda ko'pincha yuqori sinflar nazarda tutiladi. Lekin ilg'or tajribalarning tasdiqlashicha, boshlang'ich sinflarda ham sinfdan tashqari turli – tuman formalarda mashg'ulotlar olib borishning potensial imkoniyatlari mavjud. Bu imkoniyatlardan foydalanish o'qitishda boshlang'ich va yuqori sinflar uzviylikini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni olib borishda o'quvchilarning nutq madaniyatini va matematik tafakkurini shakllantirishga kompleks holda yondashish talab qilinadi. Yosh avlodni hozirgi zamon fani bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta'lim – tayanch maktablar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani hal etishda sinfdan tashqari ishlarning o'rni benihoya katta. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan foydalanish mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba'zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari mavjud: matematika to'garagi, matematika ertaligi, matematikadan fakultativ mashg'ulotlar, matematik matbuot, matematik viktorina va olimpiadalar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar quyidagi yoʻnalishlarda olib borilishi mumkin. a) ommaviy ishlar; (musobaqalar, koʻrik tanlovlar, kechalar, ertakliklar, ekskursiyalar va hokazolar);

b) toʻgarak ishlar (yosh matematiklar);

d) oʻqituvchilarning mustaqil mashgʻulotlarini yoʻlga qoʻyish (bunda oʻquvchilar fan va texnikaning biron soxasini oʻrganish uchun mustaqil ishlaydilar va hokazo). e) Maktabdagi oʻzlashtirmovchi oʻquvchilar bilan ishlashni tashkil etish usullari. Matematika toʻgaragi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan turi. Toʻgarak ixtiyoriy ravishda tuziladi. Matematika toʻgaragi ishi qiziqarli, matematika soatlaridan quyidagilar bilan farq qiladi: Matematika toʻgaragiga oʻquvchilar tanlashda ularning matematikaga nisbatan alohida qiziqishlarini, moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Har qaysi matematika toʻgaragida qatnashadigan oʻquvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda oʻqituvchiga qiyinchilik tugʻdiradi va oʻquvchilar toʻgarakda aktiv ishtirok eta olmaydilar. Matematika toʻgaragini oʻtkazish uchun oldindan uning ish rejasini tuzish kerak.

1-mashgʻulot. 1. Rebuslarni oʻylab topish. 2. Qoʻshishga oid qiziqarli masalalar. 3. 100 ichida raqamlashni bilishni tekshirishga oid mashqlar. 4. Topqirlikni talab qiladigan masalalar. 5. Hazil masala. 6. Topishmoqlar. 7. Quvnoq sanoq (20 ichida) oʻyini.

2-mashgʻulot. 1. Rebuslarni oʻylab topish. 2. Topqirlikni talab qiluvchi sheʼriy masalalar. 3. Geometrik figuralarni tahlil qilishga doir mashqlar. 4. Hazil masala. 5. “Sonni toʻldir” oʻyini.

3-mashgʻulot. Dars tipidagi toʻgarak mashgʻuloti.

Matematik tanlovlar. Tanlovlar har xil qiyinlikdagi masalalarni yechish, qiziqarli fikrlaydigan masalalar va topshiriqlarni bajarishdagi musobaqalar boʻlib hisoblanadi. Asosan oʻquvchilarning xohishi boʻyicha masalalar yechishda oʻz kuchini sinaydigan, yetarlicha tayyorgarligi borlari ishtirok qiladi.

Matematik olimpiadalar. Olimpiadalar tanlovlarga qaraganda keng koʻlamda oʻtkaziladigan va matematika oʻrganishda oʻquvchilar erishgan muvaffaqiyatlarni namoyish qiladigan ishdur. Olimpiada qatnashchilarining tarkibiga bogʻliq holda maktab ichida, tuman va shaharlarda oʻtkazish mumkin. Olimpiadani 3 - sinfdan boshlab oʻtkazib, gʻoliblar maktabning devoriy gazetalarida va oʻquvchilar yigʻilishlarida ragʻbatlantiriladi.

Matematik matbuot va viktorinalar. Gazeta, viktorinada har xildagi matematik mazmuni oʻz ichga olgan topishmoq, misol va topshiriqlar rasmlarda berilib, qiziqish xarakterida boʻladi. Matematik devoriy gazeta, viktorinalar, odatda matematik burchak deb ataluvchi joyga osib qoʻyiladi, bu burchakda Vatanimiz yutuqlarini ifodalovchi

sonli ma'lumotlar ham berib boriladi. "Bilasizmi?" ruknida qiziqarli materiallar beriladi. Masalan:

- 1) Bitta qalam bilan 64820 metr uzunlikda chiziq chizish yoki 50000 ta so'z yozish mumkin.
- 2) Bir kunda bolalar 400 marta, kattalar esa 50 marta kular ekan.
- 3) Ignaning ko'zichalik teshikdan sutkasiga 840 litr suv oqishi mumkin.

Matematika burchagini tashkil qilishni o'quvchilar va ularning ota-onalari faoli yordamida amalga oshirilishi mumkin. Matematik viktorinalar ma'lum mavzu, bo'lim yoki umuman matematikaga doir masalalar bo'yicha savol – javob o'yini bo'lib, ko'p vaqt va katta tayyorgarlik talab qilmaydi. Boshlang'ich sinflarda viktorinalar 10 – 20 minut davom etadi. Bunda oldindan tayyorlangan 5 – 6 savolga og'zaki yoki yozma javob olinadi.

Matematik musobaqa yuqorida aytib o'tilgan sinfdan tashqari ishlarda (10 minutlik, viktorina va h.k.), asosan, butun sinf o'quvchilari ishtirok etsa, matematik musobaqalarda (konkurs, olimpiada) ko'pchilik ishtirok etib, g'oliblar musobaqasi bilan yakunlaydi, ya'ni bu musobaqa bir necha (ko'pincha 3 yoki 4) davom etadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliy hayot bilan bog'lanishiga zamin yaratadi. Yuqoridagilarning barchasida o'quvchilarning matematik malakalari shakllantiriladi. Matematikada sinfdan tashqari ishlar, o'z navbatida, qiziqarli, o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, umuman, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Shuningdek, sinfdan tashqari matematika darslarida ayrim qiyin masalalar tushintiriladi, o'quvchilarning xotirasi yaxshilanadi, matematik nutqi ham rivojlanib boradi.

REFERENCES:

1. L.Sh Levenberg va boshqalar “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 2015-yil 72-84-betlar
2. Bikbayeva N va boshqalar “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 2016-yil 493-510-betlar
3. Тилакова М.А., Қораев С.Б. “Ўқувчилар креативлик қобилиятларини ривожлантириш бўйича тавсиялар”. Academic research in educational sciences.